
Qaro ko‘zum (III- qism)

Alisher Navoiy

G‘AZALLAR (DAVOM)

*Yor holidin manga, vahkim, xabar yo‘qtur bu kun,
Bu jihatdin aqlu hushumdin asar yo‘qtur bu kun.*

*Subh selobi sirishkim oqti ko‘p, ey do‘stlar,
Pand uchun kelmangkim, ul sudin guzar yo‘qtur bu kun.
Kecha gar bag‘rim bo‘lub qon oqti ko‘zdin, g‘am emas,
G‘am budurkim, itlariga mohazar yo‘qtur bu kun.
Men bukun o‘lgach, aning ko‘yiga to‘ldi xalqkim,
Ashku ohim saylu barqidin zarar yo‘qtur bu kun.
Va‘dai vaslini tongla demagilkim, umrg‘a,
E‘timodim hajr shomi to sahar yo‘qtur bu kun.
Ichmagum, ey dayr piri, jomi may, ul mug‘bacha
May tutarg‘a bazmi aysh ichra agar yo‘qtur bu kun.
O‘zlu kin chun soldo o‘lgan kun Navoiy boshidin,
Bu jihatdindur anga gar dardisar yo‘qtur bu kun.*

* * *

*Bizga ul oy hajridin bir yilchadur har tiyra tun,
Kunduzin angla bu tundin ham qorong‘u, ham uzun.
Balki yo‘qtur bu tunu kunda tafovut, lek bor
Har birida bir g‘ami muhlik bu mahzun jon uchun.
Gar o‘tar yuz ming suubat birla kunduz mehnati,
Voyu yuz ming voy, men bekasga bo‘lg‘ach kechqurun.
Gar butun ermas yoqam, ey do‘st, hayrat qilmakim,
Tosh urardin ko‘ksun ichra bir so‘ngak ermas butun.
Hajridin o‘rtansa jismimda so‘ngaklar, tong emas
Kim, erur o‘t asru itik, dog‘i bas qoqshol o‘tun.
Ishq naxlining bari hijron emish, ey do‘stlar,
Bu nasihatdin yengiz bar oshiq o‘lmastin burun.
Necha tun hijron aro oldi Navoiy jonini,
Kimga yetsa vasl, tutsin mug‘tanam bir necha kun.*

* * *

*Subh chun borg‘ung, kelib kulbamg‘a pinhon kechqurun,
Hajr o‘qin jonimg‘a sen otma tong otmasdin burun.
Necha el mendin yoshurg‘aylar seni, vah, bir kecha
Netti kulbam sari kelsang, barcha eldin yoshurun.
Jon magar chiqqay va yoxud sayli ashkim ko‘yidin
Chiqqudekmen, bori ul ko‘y ichra tutmay men o‘run.
Jilva qilg‘anda ko‘runmaslar ko‘zumga sho‘xlar,
Ey pariy, sen bori bu devonag‘a gohi ko‘run.
Nolam andoq bo‘ldi, bag‘rin yorasi islang‘ali*